

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
30-mavzu: “Kitobxonlik”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga kitob mutolaasining shaxsiy yuksalishdagi ahamiyatini tushuntirish.

Annotatsiya. Mazkur darsda o‘quvchilarga kitobxonlikning fikr, nutq, dunyoqarash rivojlanishidagi ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Dars davomida o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan badiiy asar haqida mulohaza yuritadilar.

Asosiy g‘oya:

Har bir mutolaa qilingan ilmiy yoki badiiy asar o‘quvchi kelajagini o‘zgartirishi mumkin. Kitoblar bizni ijodkorlik, sabr-toqat, yangi bilim va tajribalarga o‘rgatadi.

Metapredmet yondashuv:

Tarix: O‘quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar misolida kitobxonlikning ahamiyatini tushunib oladilar.

Adabiyot: Badiiy kitoblarda berilgan qahramonlarni tahlil qiladilar, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tarbiya: Kitoblar orqali menda chuqur o‘ylash, mulohaza yuritish, tafakkur va tahlil qilish fazilatlar shakllandi, degan xulosaga kelishadi.

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, o‘yin elementlari, videolavha va qo‘shimcha materiallar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Bugun sizlar bilan bir qiziq va muhim mavzu haqida gaplashamiz.

Ko'zlarinigizni yuming. Tasavvur qiling, siz butunlay qorong'i xonadasiz. Atrof jimjit. Hech narsani ko'rmayapsiz. Qayerda turganingizni ham, qayerga yurishni ham bilmaysiz. Bir qadam tashlasangiz, yiqilib ketishdan qo'rqasiz. Yuragingiz tez ura boshlaydi. Chunki eng katta qo'rquv bilmaslikdan tug'iladi.

Birdan kichkina sham yonadi. Atrof asta-sekin yorisha boshlaydi. Siz devorni ko'rasiz, eshikni topasiz, yo'nalishni tushunasiz. Qo'rquv kamayadi. Yana bir sham yonsa-chi? Xona yanada yorishadi. Yo'lingiz aniq bo'ladi. Endi siz shunchaki yurmaysiz, ishonch bilan oldinga harakat qilasiz.

Bilim xuddi shu sham kabidir. Kitob esa o'sha shamni yoqadigan vosita hisoblanadi.

Interaktiv o'yin: "Qorong'idagi chiroq" (3 daqiqa)

O'qituvchi: Hozir sizni o'ylashga majbur qiladigan o'yin o'ynaymiz. O'yin nomi "Qorong'idagi chiroq".

Qoidasi: orangizdan bir nafar o'quvchini tanlaymiz. Uning ko'zlarini ro'mol bilan bog'laymiz. Sinfning bir burchagiga kichik buyum qo'yamiz, masalan, ruchkani. Sizlar sinfdoshingizga qayerga yurishni aytib turasizlar. Qani, u buyumni sizlarning yordamingizda qanchalik tez topar ekan. Men soatga qarab turaman. Buyumni topish uchun 30 soniya vaqt beriladi.

O'yin boshlanadi. Sinfdagi o'quvchilar hammasi baravariga yo'l ko'rsata boshlaydi, qiy-chuv boshlandi: "Chapga yur!", "Yo'q, o'ngga!", "Oldinga!", "To'xta!" Natijada o'quvchi adashadi, chalkashadi, hatto joyida aylanib qoladi.

O'qituvchi: To'xtadik. Endi esa boshqacharoq yo'l tutamiz. Bu safar faqat bitta o'quvchi aniq va tushunarli yo'l ko'rsatadi, qolganlar jim turadi.

O'quvchi bu safar tez va oson buyumni topadi.

O'qituvchi: Nima uchun sinfdoshingiz birinchi martada buyumni topishga qiynaldi, ikkinchisida esa tez topdi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: To'g'ri. Birinchi holatda ko'p gap bor edi-yu, aniq yo'l yo'q edi. Ikkinchisida esa kam gap bo'ldi, lekin to'g'ri va aniq yo'l ko'rsatildi. Birinchi holatda hammaning gapiga quloq solib sinfdoshingiz yo'lini yo'qotdi, ikkinchi holatda esa yo'lni aniq ko'rsatadigan yo'riqnoma vositasida yechimga tez va oson yetib bordi.

Hayot ham xuddi shunday. Agar sizda bilim bo'lmasa, ko'p gap orasida adashib qolasiz. Kimga ishonishni bilmaysiz, noto'g'ri yo'lga kirib qolishingiz mumkin. Agar siz kitob o'qisangiz, aniq yo'nalish paydo bo'ladi, boshqalarga ergashmaysiz, o'zingiz yo'lni topasiz.

Aslida, kitobxonlik faqat shaxsiy xobbi emas, jamiyat va davlat uchun muhim masaladir. Shu sabab Prezidentimiz ham kitobxonlikka alohida e'tibor qaratib shunday deganlar: *“Hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.”*

Bu yerda “ma’naviy immunitet” degan ibora tilga olindi. Immunitet o‘zi nima?

O‘quvchilar: Kasallikdan himoya qiladigan kuch.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Demak, ma’naviy immunitet bizni yomon, “kasal” g‘oyalardan himoya qiladi. Shuningdek, yolg‘on axborotdan ham himoya qiladi. Odamni mustaqil fikrlashga undaydi.

Bu immunitetning eng kuchli vositasi kitobdir.

Kelinglar, hozir bir videoni tomosha qilamiz. Bu videoda Prezidentimiz va Hukumatimiz tomonidan mamlakatimizda kitoblarni va kitobxonlikni rivojlantirish yo‘lida qilinayotgan ulkan islohotlar haqida so‘z boradi.

Vizual kontent

Kitobxonlar – davlatimiz e’tiborida!

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/519

O‘qituvchi: Demak, kitob – bu shunchaki ma’lumotlar bitilgan qog‘oz emas, balki sizni qorong‘idan olib chiqadigan mayoqdir.

Kitob o‘qimagan insonning ongi qorong‘i xonaga o‘xshaydi: u bor imkoniyatlarini ko‘rmaydi, to‘g‘ri yo‘lni tanlay olmaydi, boshqalarning fikriga oson ergashadi. Kitob o‘qigan inson esa yo‘li yoritilgan odam kabi: ko‘proq biladi, tezroq tushunadi, mustaqil qaror qabul qiladi va eng muhimi, boshqalardan oldin harakat qiladi.

Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda kim yutadi? Albatta, ko‘proq bilgan, tezroq o‘rgangan va to‘g‘ri xulosa qilgan inson yutadi.

Siz qorong‘ida birovning yetovida yurishni xohlaysizmi yoki yorug‘likda o‘zingiz mustaqil va dadil qadam tashlashnimi?

O‘quvchilar: Yorug‘likda!

O‘qituvchi: Demak, bugungi darsimizning asosiy savoli ham shu: nega kitob o‘qigan bola boshqalardan tezroq muvaffaqiyatga erishadi?

Bugun biz kitob qanday qilib insonni kuchliroq, aqlli roq va muvaffaqiyatliroq qilishini aniq misollar orqali tahlil qilamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Insoniyat nima uchun kitobni o'ylab topgan? Axir kitobsiz yashasa ham bo'lardi-ku?

O'quvchilardan 2-3 ta fikr olinadi.

O'qituvchi: Bundan minglab yillar oldin ham odamlar bor edi, lekin kitob yo'q edi. Demak, bilim ham avloddan-avlodga to'liq o'tmagan. Har bir avlod hammasini yangitdan, ya'ni boshidan boshlagan. Masalan, bir joyga borish uchun yaqin va xavfsiz yo'lni topgan odam buni esida saqlab qolmay, unutib yuborishi mumkin edi, agar uni biror joyga yozib qo'ymaganida. U o'z bilimini qayd etmaganida, kelajak avlodlar o'sha yo'lni boshqatdan kashf etishlari kerak bo'lardi. Toki shu bugungacha biz hali ham yaqin va oson yo'llarni boshqatdan o'rganib yurgan bo'lar edik va rivojlanishimiz hozirgi darajada bo'lmas edi.

Shuning uchun insoniyat qanday qilib bilimni yo'qotmasdan saqlab qolish ustida o'ylay boshladi va kitobni yaratdi.

Avval odamlar ma'lumotlarni g'or devorlariga chizgan, toshlarga o'ygan. Qadimgi Shumer xalqi esa yozuvni o'ylab topdi va ma'lumotlarni loy taxtachalarga yoza boshladi. Bu tarixdagi ilk yozuvlardan va kitoblardan biri edi.

Sizningcha, nega ular yozishga majbur bo'lishgan?

O'quvchilar fikri tinglanadi.

O'qituvchi: Chunki inson bilim oladi, lekin vaqti kelib olgan bilimlarini unutib qo'yishi mumkin. Yozuv esa unutilmaydigan xotira, uzoq vaqt saqlanib turadigan hujjatdir.

Keyinroq turkiy xalqlarda O'rxun-Enasoy bitiklari paydo bo'ldi. Bu oddiy yozuv emasdi, bu xalqning tarixi, kuchi, o'zligi edi.

Tasavvur qiling: agar o'sha bitiklar bo'lmaganida, biz bugun o'tmishimiz haqida qancha ma'lumotlarni bilmas edik?

Keyin qog'oz paydo bo'ldi. Kitoblar yozildi. Ammo ularni ko'paytirish juda qiyin edi, har bir nusxa qo'lda ko'chirilardi. Bu uzoq vaqt olardi va kitoblar bir necha adaddagina bo'lar edi.

XV asrda nemis muhandisi Gutenberg kitob bosish mashinasini ixtiro qildi.

Bitta mashina butun dunyoni o'zgartirishi mumkinmi?

Ha, mumkin ekan. Chunki Gutenberg ixtirosidan keyin kitoblar tez ko'paya boshladi va arzonlashdi. Shu tarzda bilim faqat boylarning imtiyozi bo'lgan davrlar tugadi. Odamlar ommaviy kitob o'qishni boshladi. Natijada ilm tez tarqaldi, fan rivojlandi.

Agar kitob bo'lmaganida, bugungi telefon ham, internet ham, hatto siz o'tirgan maktab ham bo'lmas edi.

Bizning davrimizga kelib kitoblar o'zgardi: endi elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn kutubxonalar paydo bo'ldi. Ya'ni kitoblarga yetib borish yanada osonlashdi.

Lekin shakl o'zgarsa ham, mohiyat o'zgarmadi: kitob bilimni saqlaydi, tarqatadi va avlodlarga yetkazib beradi.

Hozir esa kitoblar va noshirlik tarixi haqida hikoya qiluvchi videokontent qo'yib beraman.

Vizual kontent

Kitob tarixi bo'ylab sayohat

<https://youtu.be/JA7dgcRw2i8>

O'qituvchi: Endi sizlarga bir qiziq faktni aytaman. Inson miyasi aynan sizning yoshingizda o'rganish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish salohiyati cho'qqisiga chiqqan bo'ladi. Bu davrda miyaning "eshiklari" keng ochiq bo'ladi. Agar shu davrda ko'p bilim kirmasa, keyin kirishi qiyin bo'ladi.

Xalqimizda shunday maqol bor: "**Yoshlikda olingan bilim – toshga yo'nilgan naqshdir**". Ya'ni sizning yoshingizda olingan bilim miyangizga xuddi toshga o'yib yozilgandek o'chmas bo'lib yoziladi. Yosh kattalashgan sayin bu qobiliyat zaiflashib boradi. Shu sababli hozirgi vaqtingizdan unumli foydalanib ko'p kitob o'qishingiz kerak. Yosh paytda o'qilgan kitoblar insonning dunyoqarashini va ilmiy salohiyatini shakllantiradi.

Ta'kidlab o'taman: bu yerda kitob deganda gap faqat darsliklar emas, darsdan tashqari adabiyotlar ham nazarda tutilyapti. Chunki darslik bilim bersa, kitob tafakkurni kengaytiradi.

Kitob o'qigan o'quvchi tezroq tushunadi, savollarga chuqurroq javob beradi, fikrini aniq ifodalaydi, inshosi bexato va og'zaki nutqi kuchli bo'ladi.

Ikki o'quvchini tasavvur qiling: 1-o'quvchi faqat darslikni o'qiydi, 2-o'quvchi esa qo'shimcha kitoblarni ham o'qiydi. Qaysi biri nazorat ishida yuqori baho oladi? Nega?

O'quvchilar fikri tinglanadi.

O'qituvchi: Bilim faqat yodlash emas. Bilim tushunish, bog'lash va qo'llashdir. Kitob o'qigan bola aynan shularni yaxshi eplaydi.

Shuning uchun bugungi raqobatda ustunlik kimda? Albatta, ko'proq o'qigan bolada.

Kelinglar, endi kitoblar qanday chop etilishini tomosha qilamiz. Sirojiddin sizlar uchun "O'zbekiston" nomli nashriyotdan reportaj tayyorlab kelibdi. Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Kitoblar qanday tayyorlanadi?

<https://youtu.be/Zp519buPEJA>

O'qituvchi: Endi sizlar bilan kichik taqqoslash qilamiz.

Ikki o'quvchini tasavvur qiling.

1-o'quvchi kitob o'qiydi: fikri keng, savollar beradi, yangilikka ochiq, o'ziga ishonadi.

2-o'quvchi kitob o'qimaydi: faqat eshitganiga ishonadi, mustaqil fikri sust, tez chalg'iydi, boshqalarga ko'r-ko'rona ergashadi. Sizningcha, 10 yildan keyin qaysi biri muvaffaqiyatli bo'ladi?

O'quvchilar fikri tinglanadi.

O'qituvchi: Albatta, kitob o'qigan va o'z mustaqil fikriga ega bola muvaffaqiyat qozonadi. Endi bu fikrni kengaytiramiz.

Agar jamiyat ko'p kitob o'qisa-chi? Unda odamlar ongli bo'ladi, yolg'on axborotga ishonmaydi, ilm rivojlanadi, davlat kuchayadi.

Bilasizlarmi, har yili aholisi eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxati e'lon qilinadi. 2025-yilgi shunday ro'yxatda 1-o'rinda AQSH, 2-o'rinda Hindiston, 3-o'rinda Buyuk Britaniya turadi. Ro'yxatning so'ngida esa yaqindagina urushni boshidan kechirgan Afg'oniston turibdi. Kitob ko'p o'qish va davlatning rivojlanganligi orasidagi bog'liqlikni payqayapsizlarmi?

Rivojlangan mamlakatda yashash uchun uni qurish kerak. Rivojlangan mamlakat qurish uchun esa ko'p kitob o'qish lozim. Agar jamiyat kitob o'qimasa, rivojlanish sekinlashadi, muammolar ko'payadi. Kitob faqat shaxsnigina emas, butun jamiyatni o'zgartiradi. Kitob o'qigan inson yo'l topadi. Kitob o'qimagan inson esa boshqalarning yo'lidan yuradi.

Siz o'zingiz yo'l topadigan inson bo'lasizmi yoki boshqalarga ergashadiganmi? Bugun shu savolga to'g'ri javobingiz bo'lishi sizning kelajagingizni belgilaydi.

Shu o'rinda yosh yozuvchi Nodirabegim Ibrohimovanning kitob qanday mo'jiza ekani, uning hayotimizdagi ahamiyati haqidagi fikrlariga quloq tutamiz.

Vizual kontent

“Bir kitobni 3-4 martalab o'qib chiqardim” – Nodirabegim Ibrohimova

<https://youtu.be/8Khsm8zui1I>

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Bugun biz juda muhim bir haqiqatni tushundik. Kitob shunchaki ma'lumotlar yig'indisi emas. Kitob – bu yo'l. Yo'nalish. Imkoniyat. Kuch.

Biz ko‘rdikki, insoniyat kitob orqali o‘z bilimlarini saqlab qolgan, bilim ko‘paygan. Aynan kitob sabab bugungi taraqqiyot darajasiga kelganmiz.

Yana bir muhim xulosa shuki, eng katta ustunlik – bu bilim. Eng tez bilim beradigan vosita esa kitobdir.

Siz aynan hozir shunday davrdasizki, o‘qigan har bir kitobingiz sizni shakllantiradi. Bugun o‘qiganlaringiz ertangi hayotingizni belgilaydi.

Hayotda ikki xil odam bo‘ladi:

- 1) kitob o‘qib, o‘z yo‘lini topadiganlar;
- 2) o‘qimay, boshqalarning yo‘lidan yuradiganlar.

Endi sizlarga kichik, lekin hayotingizni o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan chellenj taklif qilaman.

“7 kun – 7 sahifa” chellenji!

Qoidasi juda oddiy: har kuni kamida 7 sahifa kitob o‘qiydiz. 7 kun davomida to‘xtamaydiz. Har kuni o‘qiganingizdan 1 ta qiziq fikrni yozib borasiz.

Esingizda bo‘lsin: katta natijalar kichik, lekin doimiy qadamlardan boshlanadi. Yetti sahifa kamdek yoki ko‘pdek tuyuladi. Lekin bir haftada bu odatga aylanadi. Bir oyda siz boshqalardan ajralib turadigan bo‘lasiz, bir yilda esa mutlaqo boshqa insonga aylanasiz

Albatta, savol tug‘iladi:“O‘qishni qaysi kitobdan boshlaymiz?”. Yaxshi savol. Chunki to‘g‘ri tanlangan kitob yarim muvaffaqiyat demakdir.

Shu sabab sizlar uchun maxsus yoshga mos, qiziqarli va foydali bo‘lgan kitoblar ro‘yxatini beraman. Bu kitoblar fikrlashni kengaytiradi, tasavvurni boyitadi, mutolaaga muhabbat paydo qiladi.

Hozir shu ro‘yxat bilan tanishamiz va har biringiz o‘zingizga birinchi kitobni tanlaysiz.

5-8-SINFLARGA O‘QISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN BADIY KITOBLAR RO‘YXATI:

	1		2		3		4
Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib”		Xudoyberdi To‘xtaboyev “Shirin qovunlar mamlakati”		G‘afur G‘ulom “Shum bola”		Abdulla Qodiriy “Uloqda” (hikoya)	
	5		6		7		8
Mark Tven Tom Soyerning sarguzashtlari”		Aleksandr Pushkin “Ertaklar”		Astrid Lindgren “Kichkintoy va Karlson”		Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”	
	9		10		11		12
Daniel Defo “Robinzon Kruzo”		Abdulla Oripov She‘rlar		Erkin Vohidov She‘rlar		Viktor Gyugo “Gavrosh” (Les Misérables dan)	

O'qituvchi: Unutmang: kitob – bu sizni hech qachon aldamaydigan do'sdir.
Shu bilan darsimiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr. Salomat bo'ling.